

This is not registered version of TotalDocConverter

Musibalar ushbu Rusiyaning hozirgi holini yanqatrasvir etmak uchun mundan yarasharoq[1] so'z yo'qdir. O'zgarishdan[2] so'ng Rusiyaning har tarafidan ochliqlar, yong'inlar, talonlar, o'lumlari, o'ldurmalar bo'lub turg'an chog'da birda chiqib qolg'an g'olibiyi mag'lublig'i bilan buning ustig'a tortilmas bir yuk bo'lub cho'kgan Rig'o[3] ketishini ko'zda olsak va bunlar orqasidan bosib kelgan Boltiq mag'lubligini o'ylasak, Rusiyani musibat ustinda musibat bosayotibdir. Rusiya amrinda emdigi tuyoklarin ostinda yotibdir deyarg'a bizni majbur qilur. Voqea Rig'o kabi chidamli bir qo'rg'onning uch kunda ketmasi Boltiqdagi kimsalarning chopibg'ina anglamasi, yolg'uz ishtahalarini emas, o'z istiqbollaridan ruslarning o'zlarini dahi ma'yus qilur, rus kuchindagi e'timod[4] va e'tiborlarni tubindan churutur hodisalardan edi. Ortiq ruslarning oxirlari qolg'an bo'lsa, butun-butun muttafiqlarig'a[5] qolg'an edi. Ruslar "ehtimolki, muttafiqlarimiz o'z maydonlarina orqasi aysimas[6] yurushlar qilib, bizni o'zigagina undururlar" deb o'ylay edilar.

Rus siyosiyarlari shunday bir umid bilan urunib turmoqda ekan, birdan Italiya qo'shuni buzuldi. Olmonlar Italiya uzra temur yumruqlarini undirdilar[7] va Italiya qo'shuni o'z boshini olib, Olp tog'lari orqasiga chiqorg'a majbur bo'ladi. Olmonlar, yo'llari uzra Italiya qo'shunindan ming bo'yla kuchliroq bir mone'[8] bo'lg'an Olp tog'larin oshib, Italiya sahrolarig'a indilar. Ortiq Italiya o'lkasining har yoniga olmon qo'shuni uchun yo'llar ochildi...

Italiyaning bu qo'rqunch mag'lublig'i yolg'iz italyonlar uchun emas, ruslar uchun daxi buyuk bir musibat bo'ldi. Chunki yong'inlarinda, badbaxtlik loyqalarinda botib qolg'an Italiyaning qo'lindan ololmag'an muttafiqlar qo'shunindan Rusiya uchun ko'mak ko'zlayikning ma'nosiz bir edugini yangidan isbot qilib berdi. Buning natijasinda Rusiyada yangi bir balo bosh ko'tardi, bolshevik balosi!

Bolsheviklar ikkinchi yo'la qo'zg'aldilar. Bu qo'zg'alishlari birinchisi kabi bo'lmadi. Bu daf'a buyuk ish qurdilar. Petrogradni olib, Kerenskiyni Rusiyaning sodiq bolalarini oxtarib topib, to'plab keturmak uchun maydonlarig'acha ketarg'a majbur etdilar. So'ng xabarlariga ko'ra, Kerenskiy tevarakdan to'plab keturdigi qo'shun bilan bolsheviklarni yengmish va Petrogradni unlarining qo'lindan yangidan olmishdir.

Olmish, ammo bolshevik balosi boshqa bir tarafdin bosh ko'tardi: Toshkandda to'rt kunlik qonli bir urushmadan so'ng, u yerni kerenskiychilardan bo'shatdi. Ehtimolki, Kerenskiyning Petrogradagi g'oliblig'i Toshkand mag'lublig'ini e'tibordai tushurar; ehtimolki, Kerenskiy Petrograd ishini tuzatgandan keyin Toshkandni daxi yanadan olur. Lekin shunlargini bilan bolshevik kuchining yo'q bo'lurini umid etmak to'g'ri emas. Bolsheviklarning ikkinchi chiqishlari bilan birinchi chiqishlari orasidagi ayirbodni ko'rgan kimsalar uchunchi bir chiqishning qanday bo'lurini onglab olsalar kerak.

Biz turkistoniylar uchun har holda kerenskiychilar bilan bolsheviklar orasindag'i kurashning bitib ketmadigini ko'zda tutib, o'z yo'llarimizni shunga ko'ra tayin etmak kerakdir. Bilamizki, hozirda kurashib turgan bu oygi firqaning har biri hurriyatchidir. Ikkisining ham bizga zararli tushunchalari oxirda yo'qdir. Zero, bunlardan birontasi istibdod tarafdori emasdir. Telbalik qilib chopibg'ina bunlardan birini yoqlamoq foydali bo'lib chiqmas. Rusiyada istibdod tarafdorlari chiqmaguncha musulmon kuchini sarf etmak xatodir. Hurriyatchi ikki partiya orasinda bo'laturg'an urushlarga qotishmoq, bunlardan birini yoqlab o'zgasidan yuz qaytarmoq ehtiyotsizliqdir. Bunlarning ham bizning so'zimiz shu bo'lg'ulidirki: biz musulmonlar sizning hech biringizdan nafrat qilmaymiz. Bizning milliy vataniy haqlarimizni g'asb etmak fikriga tushmaguncha biz hech biringizga dushman bo'lmaymiz. Mana hozirda turkistoniylar uchun xatarsiz yo'l shu yo'ldir.

("Hurriyat", 1917 yil, 49-son)

Б† yarasharoq - yarashiqliroq.

Б† o'zgarish - Oktyabr inqilobi.

Б† Rig'o - Riga shahri. Rusiyaning Boltiqbo'yini egallash ilinjidagi janglardagi muvaffaqiyatsizligi nazarda tutiladi.

Б† e'timod - yupanch, tayanch.

Б† muttafiq - birlashgan, ittifoqchi.

Б† orqasi aysimas - natijasiz.

Б† Birinchi jahon urushidagi Olmoniya va Italiya qo'shinlarining o'zaro kurashlari nazarda tutilgan. Italyan qo'shinlari Alp tog'larini oshib o'tishi bilan o'z ichki mudofaasidan uzoqlashib ketadi. Olmoniyaning Italiya ichkarisiga yo'l ochishi voqealari nazarda tutilmoqda.

Б† mone' - to'siq.